

"Boburnoma" qo'lyozmalari: tarixiy-nasriy yodgorlik va jahon sharqshunosligidagi o'rni

Musurmonova Barchinoy Hasan qizi

Koson tuman 1- son politexnikumi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk adib va mutafakkir Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari tarixiy, adabiy va madaniy manba sifatida tahlil qilinadi. "Boburnoma"ning yaratilish tarixi, qo'lyozmalarining saqlanish joylari, tarjimalari va jahon ilm-fanida tutgan o'rni yoritiladi. Asarning jahon sharqshunos olimlari tomonidan o'rganilishi, Britaniya kutubxonalari va muzeylarida saqlanayotgan nodir qo'lyozmalarining ilmiy-ijodiy qiymati tahlil etiladi. Boburning bu asari XVI asr Sharq nasriy merosida eng ishonchli va qimmatli tarixiy yodgorliklardan biri sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Boburnoma, Zahiriddin Muhammad Bobur, qo'lyozmalar, tarixiy asar, sharqshunoslik, Britaniya kutubxonalari, tarjimalar, Chig'atoy tili, "Vaqiat-i Boburiy", madaniy meros, jahon adabiyoti.

Iste'dodli adib, san'at, adabiyot va ilm-fan ixlosmandi, original xotiranavis Bobur keng dunyoqarash va izlanuvchan tafakkur sohibi sifatida O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlari hayotining ko'pgina sohalarida sezilarli iz qoldirdi. Bobur o'zining yuksak qobiliyati tufayli Hindistondagi boburiylar sulolasining asoschisi bo'lgan sarkarda va hukmdor sifatidagina emas, balki musulmon huquqshunosligi sohasida ham boy ijodiy adabiy va ilmiy meros qoldirgan olim va shoир sifatida tarixga kirdi. Uning qalamiga asl lirik asarlar (g'azallar, ruboilar), musulmon qonunshunosligi ("Mubayyin") , she'riyat ("Aruz risolasi") ,musiqa, harbiy sohaga oid risolalar shular jumlasidandir.

Ammo Bobur ijodida o'zbek tilidagi bebaho nasriy adabiy yodgorlik - uning tarixiy asari "Boburnoma" markaziy o'rinni egallaydi. Kitob Hindistonda tugallangan bo'lib, asosan avtobiografik xarakterga ega va O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlarining

XV asr oxiri - XVI asr boshlaridagi tarixini aks ettiradi. Ma'lumotlar yig'indisi va ularning ishonchliligi jihatidan "Boburnoma" O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston va Hindistonda o'rta asrlarda yozilgan shunga o'xshash asarlar orasida tengi yo'q eng muhim va qimmatli tarixiy-nasriy asardir. Materialning boyligi va xilma-xilligi, tili va uslubi jihatidan "Boburnoma" o'sha davrdagi saroy solnomachilari tomonidan tuzilgan har qanday tarixiy xronikadan ustun turadi. Shuning uchun ham bu asar turli davrlarda jahon olimlarining diqqat-e'tiborini o'ziga tortgan bo'lsa ajab emas.

Muammolarning umummetodologik doirasi jahon ilmiy adabiyotlarida va sharqshunos olimlarning tadqiqotlarida yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan. Tadqiqotchi-tarjimonlar Bobur qo'lyozmalarini o'rganishga katta hissa qo'shdilar, ularning faoliyati tufayli siyosatchi, sarkarda, adabiyotchi, shoir, faylasufning ajoyib asarlari zamonaviy dunyoning mulkiga aylandi. "Boburnoma" aslida Boburning o'z qo'li bilan turkiy tilning chig'atoy lahjasida yozilgan. Qo'lyozmaning ingliz tiliga asl tarjimasini 1826-yilda J.Leyden va V.Erskin amalga oshirgan, u O'rta Osiyo xalqlari hayot faoliyatining tarixiy va geografik jihatlariga bag'ishlangan kirish qismini o'z ichiga olgan. Ushbu qo'lyozma Britaniya fondlarida saqlanadi. XX asrda bu tarjima L.King, A.S.Beverij tomonidan tahrir qilingan, mukammallashtirilgan.

Dunyo sharqshunoslarining ilmiy qiziqishlari Sharq mamlakatlari, xususan, O'rta Osiyo, Hindiston madaniyati tarixi, iqtisodiyoti, geografiyasi, adabiyoti, tillari, san'ati, dini, etnografiyasi, moddiy va ma'naviy madaniyati yodgorliklarini o'rganishga qaratilgan. Bu parametrlarning barchasi Z.M.Boburning "Boburnoma" qo'lyozmasida o'z aksini topgan va jahon olimlari: J.Leyden, V.Erskin, A.S.Beverij, N.I.Ilminskiy, G.Ya. Kerom, M.Sale, A. Pave de Kurteylem, N.F.Petrovskiy, A.N.Samoylovich, G.V.Blagova, T.D.Bayturayev, R.M.Kazakova, M.I.Abduraxmanov, Ya.I.Avlakulov, A.N.Babin, I.M.Burxonov va boshqalarning tadqiqot mavzusiga aylangan.

Britaniya kutubxonasida Boburning "Vaki'at-i-Babari" ("Boburnoma") deb nomlangan o'n birga yaqin qo'lyozma asari mavjud bo'lib, ular XVII-XIX asrlarda tuzilgan. Ularning eng dastlabkisi 1630-yilda turkiy tilda nashr etilgan bo'lsa-da, afsuski,

ular bugungi kunga qadar to‘liq saqlanib qolmagan. O‘z navbatida, Bodlean kutubxonasi fondida Boburning oltita qo‘lyozmasi, Kembrij universiteti kutubxonasida esa "Boburnoma" asarining atigi bitta qo‘lyozmasi mavjud.

XVII-XX asrlardagi tarixiy voqeliklar Britaniyaning Janubiy Osiyodagi savdo-mustamlakachilik harakatlaridan dalolat beradi, bu esa Britaniya elitasining mintqa tillari, tarixi va madaniyatiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Bu ishtiyoqning natijasi o‘laroq, mazkur hududdan imperiya markaziga moddiy-ma’naviy meroslar sotib olindi va tashib keltirildi. Hindistondan olib ketilgan qimmatbaho buyumlar davlat va xususiy muzeylarga qo‘yilgan. To‘plamlarga Chig‘atoy badiiy-adabiy va ilmiy asarlari kiritilgan bo‘lib, ular boburiy adabiyotchilar tomonidan yaratilgan yoki kotiblar tomonidan ularning nufuzli homiylari uchun ko‘chirilgan. Janubiy Osiyo tarixi va madaniyati uchun tilning ahamiyati "Vaki‘at-i-Babari"ning ikkita chig‘atoy versiyasi (shuningdek, "Boburnoma" nomi bilan tanilgan; Add MS 26324, f 118v), Boburiylar imperiyasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning tarjimayi holi. "Vaki‘at-i-Babari"ning bir nusxasi 1865-yilda muzey tomonidan Uilyam Erskindan sotib olingan. E’tiborlisi, Britaniya fondlarida "Vaqiat-i Boburiy" asaridagi g‘ayrioddiy atamalarning chig‘atoycha-forscha lug‘ati" saqlanmoqda. Collection Area: Oriental Manuscripts. Adabiyot: Add MS 26319, ff. 11v-16r (Chig‘atoycha-forscha Voqiat Boburiy noyob atamalar lug‘ati.) . Mazkur yozma meros yodgorligi "Boburnoma" qo‘lyozmasini o‘rganishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi bilan g‘oyat qimmatlidir.

XVI asrga oid "Boburnoma"ning to‘liqroq nusxasi IO Islamic 2538 (sobiq Hindiston ofis kutubxonasining bir qismi) - Hindiston ofis kutubxonasida mavjud. Qo‘lyozmaga ingliz tilidagi annotatsiya ilova qilingan. Shunga ko‘ra, Annet Beverij aynan shu nusxdadan foydalangan degan taxmin paydo bo‘ladi. Chunki u XIX asr oxirida mustamlaka Hindistonda bo‘lgan Britaniya elitasining bir qismi edi. A.Beverij chig‘atoy va fors manbalariga tayangan holda "Boburnoma" va "Humoyunnoma" asarlarini tarjima qilgan.

"Boburnoma"da keltirilgan ma'lumotlar o'zining ishonchliligi, obyektivligi, haqqoniyligi va hayotiyligi bilan ajralib turadi. Z.M.Bobur o'z asariga quyidagicha baho bergen:..." bu yerda yozilganlarning barchasi haqiqatdir va bu so'zlardan maqsad o'zimni maqtash emas, hammasi, haqiqatan ham, men yozganimdek edi. Ushbu solnomada men o'zim yozgan har bir so'z haqiqat bo'lishi va har bir ish qanday sodir bo'lgan bo'lsa, shunday bayon etilishi uchun o'zimga majburiyat oldim".

Buyuk mutafakkir, o'tmish hukmdori va shoiri Boburning topilgan noyob qo'lyozmalari asosan turli kolleksionerlar va savdogarlar tomonidan Buyuk Britaniyaga olib kelingan va keyinchalik muzey va kutubxona fondlariga sovg'a qilingan yoki sotilgan. Qo'lyozmalarning bir qismi ingliz olimlari tomonidan o'r ganilgan va kataloglashtirilgan. Va bu qo'lyozma merosning barchasi noyob va alohida qimmatli eksponatlarga tegishli bo'lib, boshqa muzeylar, kutubxonalar, tashkilotlar yoki jismoniy shaxslarga sotilmaydi. Ba'zi qo'lyozmalar hatto qo'lga ham berilmaydi, ularga zarar yetkazmaslik uchun ulardan nusxa ko'chirib bo'lmaydi. Biroq, xohlovchilar ushbu qo'lyozmalarning oq-qora yoki rangli fotonusxalarini buyurtma qilishlari mumkin. Shunga e'tibor berish kerakki, ko'p qo'lyozmalar yaxshi tasvirlangan, garchi Boburning o'zi o'z asarlarining hech qanday tasvirli versiyalarini yaratmagan bo'lsa ham. Bunga uning nabirasi Buyuk Akbar (1542-1605) - davlat arbobi, Boburiylar imperiyasining uchinchi podshosi, bobosining qo'lyozma asarlarini miniatyuralar bilan nafis tasvirlagan, ammo fors tiliga tarjima qilingan. Bugungi kunda dunyoning turli kolleksiyalarda tarqalgan yetmishga yaqin miniatyuralar mavjud bo'lib, ulardan yigirmasasi Londondagi Viktoriya va Albert muzeyida, shuningdek, ma'lum qismi Britaniya kutubxonasida saqlanadi. Turli boshqa to'plamlarda alohida miniatyuralar mavjud, shuningdek, unchalik katta hajmda bo'lmasa da, keyingi illyustratsiya variantlari ham yaratilgan.

Davlat arbobi va iste'dodli mutafakkir Boburning asarlari kun sayin dunyoga mashhur tarixchilar, faylasuflar va yozuvchilarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Ko'plab olimlarning qat'iyati va g'ayrati bilan Buyuk Britaniya fondlarida saqlanayotgan Bobur qo'lyozma merosini o'r ganish bo'yicha salmoqli ilmiy izlanishlar olib borildi. Ular Bobur

asarlari, ayniqsa, uning "Boburnoma"sigi berilgan batafsil tavsiflar asosida o‘z tadqiqotlarini jahon ilm-fanining oldingi qatoriga qo‘yib, uning ijodi mazmun-mohiyati bilan jahon jamoatchiliginini tanishtirishga muhim hissa qo‘shdilar.

Xulosa qilib aytganda, ma’lumotlar yig‘indisi va ularning ishonchliligi jihatidan "Boburnoma" Sharqda XVI asr boshlarida yozilgan bunday asarlar orasida tengi yo‘q qimmatli tarixiy-nasriy asardir. Shuning uchun ham jahon sharqshunosligida "Boburnoma"ga qiziqish juda katta bo‘lib, bu kitobning jahonning turli tillariga tarjima qilingani ham shundan dalolat beradi. Sharqshunoslari, kutubxonalar, muzeylar xodimlarining g‘ayratli sa’y-harakatlari tufayli madaniyatning yozma yodgorliklari saqlanib qolmoqda va rekonstruksiya qilinmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Бабур. Мубайин || Рукопись ИВ Санкт-Петербургского отделения Российской АН — И nv. № 104.
- 2.Хасанов С. Бобирнинг Аруз рисоласи. — Т., 1981.
- 3.Казакова Р.М. История создания и культурно-историческое значение текста «Бабур - наме». Эпиграммы Бабура // Образование и инновационные исследования, 2022, № 7. - С. 87-90.
4. Бесценные источники нашей культуры. О рукописях в библиотеках Великобритании. <https://www.gazeta.uz/ru/2017/07/05/manuscripts/>
5. Chagatai-Persian Glossary of Unusual Terms in the Vaqiat-i Baburi. Collection Area: Oriental Manuscripts.
6. Бабур, Захир- ад-дин Мухаммед. Бабур-наме - Записки Бабура. - Ташкент: Главная редакция энциклопедий, 1992. - 292с.
7. Конрад, Н. И. Запад и Восток : ст. / Н. И. Конрад. - М.: Гл. ред. вост. лит., 1972. - 496 с.
- 8 Самойлович А.Н. Новый перевод Записок Бабура //Известия АН. Сер.лит-ры и языка. - 1994. Т.53.- № 1. - С. 76 - 84.